

R.O.Lutfullayev
Jizzax davlat pedagogika universiteti
boshlang'ich ta'lif fakulteti talabasi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA BBB TEKNOLOGIYASINI QO'LLASHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf darslarida ilg'or tajribalar, interaktiv metodlar, ta'lif texnologiyalaridan foydalangan holda o'quvchilar kreativligini rivojlantirish masalasi xususida fikr yuritiladi.

Аннотация: В этой статье обсуждается вопрос о лучших практиках, интерактивных методах и креативности студентов, использующих образовательные технологии с использованием образовательных технологий.

Annotation: This article discusses the issue of best practices, interactive methods and creativity of students using educational technologies using educational technologies.

Ta'lif o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z ilimi, ko'nikma va malakalarini mashg' ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalinish qobiliyatiga ega bo' ladi. Ayni vaqtida axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqamli O'bekiston – 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalnishadi, ya'ni o'zashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishslash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi.

Ta'lif jarajonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lif va tarbiya masalalari hal etiladi Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Ta'lif jarayonida boshlang'ich ta'lifda metodlar qo'llash o'quvchi va o'qituvchilar uchun juda muhimdir. Bu, ta'lif jarayonining samaradorligi va o'rganish tezligi uchun axborotlarga qanday e'tibor qaratilishini o'rganishga yordam beradi.

O'rganishni optimallashtirish, darsning motivatsiyasini oshirish va o'quvchilar o'rtasida ko'rsatadigan ta'lif va yozishni qo'llashni ta'minlash uchun xavfsiz va samarali usullar bog'liq. Bularidan biri "BBB" metodi. "BBB" metodi bu B-B-B sxemasi bo'yicha o'quvchilar bilan mavzuni mustahkamlash uchun ijodiy ishslash metodi. O'quvchilar guruhlarga bo'linishadi. O'tilayotgan mavzu yoki tushuncha yuzasidan har bir guruh o'zaro hamkorlikda «Taxminan nimani bilamiz?» ustunini to'ldirishadi. Doskadagi birinchi ustunga esa barcha guruhlarning javoblari jamlanadi. Berilgan javoblar toifalar bo'yicha guruhlanadi. Keyin har bir guruh a'zolari o'zaro kelishilgan holda «Bilishni xohlayman» ustuniga mavzu yuzasidan o'zini qiziqtirgan savollarni yozib chiqishadi. Doskadagi ikkinchi ustunga esa barcha guruhlarning savollari jamlanadi. Shundan so'ng talabalar mavzu yuzasidan matn (ma'ruza) bilan to'liq tanishib chiqadilar va jadvalning ikkinchi ustuniga qaytib, o'zları bilishni xohlagan savollardan qaysilariga javob topganligini belgilab chiqishadi. Savollarga topilgan javoblar uchinchchi «Bildik» ustuniga yoziladi. O'quvchilarni qiziqtirgan qaysidir savolga javob chiqmay qolgan bo'lsa, uni o'qituvchi to'ldirishi yoki uya vazifa sifatida bilib kelishni topshirishi mumkin. Masalan: 1-sinf O'qish darsida «Alisher bilan bulbul» matniga tuzilgan jadval:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Alisher Navoiy yoshligida juda ziyorak, ilmga chanqoq bola bo'lgan.	U qayerda tug'ilgan? Nima uchun Navoiy taxallusi qo'yilgan?	U 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug'ilgan. Bulbulning "navo" degan so'zi

**Shahrimiz uning nomiga
qo'yilgan.
U shoir va yozuvchi bo'lgan.**

Alisherga yoqib u o'ziga " Navoiy"
taxallusini tanlaydi.

Nafaqat birinchi sinf dasrligi balki boshqa sinf va boshqa fanlarda ham ushbu metodni qo'llash samarali foyda beradi. Ushbu metodni masalan 2-sinf ona tili darsligidagi tutu belgisi haqida bilib olamiz mavzusida ko'rib chiqamiz.


Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Tutuq belgisi bor bo'g'inda to'xtalib o'qiladi. Ushbu belgi harfning yuqori qismi yon tarafiga qo'yiladi.	Tutuq belgisi qanday vazifalarni bajaradi? Tutuq belgisi bor so'zlar qay tarzda bo'g'inga bo'linadi?	Tutuq belgisi ma'no farqlashda ham xizmat qiladi. Masalan : sher(hayvon)-she'r(adabiy janr) Tutuq belgi bor so'zlarni ko'chirishda tutuq belgisi birinchi satrda qolad. Masalan:ma'rifat so'zi ma'-ri-fat.

Endi xuddi shu metodni 3-sinf tarbiya darsilgidagi "Sayyoramizga nimalar xavf solmoqda? " mavzusida ko'rib chiqamiz.



Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Odamlar tabiiy yer qazilmalaridan foydalanadi. Suv havzalariga chiqindilar tashlanadi.	Chiqindilar suvgaga qanday ta'sir ko'rsatadi? Daraxlar kesilgani hayvonotta'sir ko'rsatadi , o'limiga ham olib kelishi mumkin.	Suvga tashlangan chiqindilar suvda yashovchi jonzotlar sog'ligiga katta ta'sir ko'rsatadi , o'limiga ham olib kelishi mumkin. Ha albatta. Ular uashash joyidan ozuqadan mahrum bo'ladi.

4-sinf tabiiy fanlar darsligidagi "Yerning tuzulishi" mavzusida BBB texnologiyasini quyidagi tartibda qo'llash mumkin bo'ladi.



Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Yerning tortish kuchi mayjud. Yerning ustki qatlami suv va quruqlikdan iborat.	Yer nechta qatlamdan iborat? Ular qanday nomlanadi?	Yer to'rt qatlamdan iborat. 1- yer qobig'i 2- mantiya 3- tashqi yadro 4- ichki yadro

Xulosa

Ushbu maqolada faqatgina bir metodni fanlar o qo'llanilishida har qanday mavzuda fodalananish mumkinligini ochib berishga harakat qildik. Bundan tashqari qancha metodlar bor. Interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, didaktik o'yinlar bularning barchasidan birma- bir darslarda foydalanilsa o'qituvchiga juda katta yordam beradi. Metodlar o'quvchilarning e'tiborini tez jalb qiladi, mavzuga fanga qiziqish uyg'otadi, yodda saqlashlari ham oson bo'ladi, o'quvchilarning yangi qobiliyatatlari qirralari kashf etiladi, ko'p o'qivchilar rag'batlantiriladi, jamoaviy va individual tarzda ishlashga o'rganadilar.

Adabiyotlar:

1. Farsakhanova, D. (2020). Improvement of the methodology of spiritual and moral education of students of pedagogical institutions. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
2. Farsakhanova, D., & G'ofurova, S. (2021). Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qish darslarida P. Mo'min ijodini o'rganish metodikasi. *Журнал инновации в начальном образовании*, I(БТНА_1).
3. Farsakhanova, D., & Azdamova, M. (2021). Boshlangich sinflarda sifat ustida ishslash bo'yicha topshirqlar tizimini ishlab chiqish. *Журнал инновации в начальном образовании*, I(БТНА_1).
4. Farsakhanova, D. (2021). Boshlang'ich sind "tarbiya" fanini o'qitishda ajdodlar merosidan foydalanish masalalari. *Журнал инновации в начальном образовании*, (Архив№ 1).